



**Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlar tahlili
hamda ularning dars samaradorligiga ta'siri**

Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +998-94 535-37-67

E-mail: sevaramatqurbonova8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan zamonaviy hamda an'anaviy metodlar farqlari, ularning afzallik va kamchiliklari shu bilan birgalikda amaliyotdagi samaradorligi tahlil etiladi. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ta'lim metodlarini tanlash va ulardan unumli foydalanishning dars sifati va natijasiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada o'qituvchilarning metod tanlovi, interfaol usullardan foydalanish ko'nikmalari va bu metodlar yordamida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, ta'lim metodlari, suhbat metodi, savol-javob usuli, analitik-sintetik tovush metodi, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma nutq, dars samaradorligi.



Abstract: This article analyzes the differences between modern and traditional methods used in primary school native language classes, their advantages and disadvantages, as well as their effectiveness in practice. The impact of choosing and effectively using teaching methods appropriate to the age characteristics of students on the quality and results of the lesson is discussed. The article also examines the choice of methods by teachers, their skills in using interactive methods, and the possibilities of using these methods to develop independent thinking, oral and written speech skills in students.

Keywords: primary education, native language lessons, teaching methods, conversation method, question-and-answer method, analytical-synthetic sound method, interactive methods, independent thinking, oral and written speech, lesson effectiveness.

Аннотация: В статье анализируются различия между современными и традиционными методами, применяемыми на уроках родного языка в начальной школе, их преимущества и недостатки, а также эффективность на практике. Обсуждается влияние выбора и эффективного использования методов обучения, соответствующих возрастным особенностям учащихся, на качество и результаты урока. В статье также рассматривается выбор методов учителями, их навыки использования интерактивных методов, возможности использования этих методов для развития самостоятельного мышления, навыков устной и письменной речи у учащихся.


Ключевые слова: начальное образование, уроки родного языка, методы обучения, разговорный метод, вопросно-ответный метод, аналитико-синтетический звуковой метод, интерактивные методы, самостоятельное мышление, устная и письменная речь, эффективность урока.


Barchamizga ma'lumki bugungi kunda yurtimizda yoshlarning sifatli tarzda ta'lim hamda tarbiya olishlari uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqda. Asosan



maktab ta'limi tizimida bir qancha foydali va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “ Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur. Bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhim”[1].

Boshlang'ich ta'lim bosqichi – o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalar shakllanadigan asosiy davr hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslari bu davrda o'quvchilarning nutqiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Aynan shuning uchun ham dars jarayonida foydalaniladigan metodlarning to'g'ri tanlanishi va samarali qo'llanilishi dolzarb masalalardan biridir. Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metod hamda usullari ta'lim tizimining takomillashishi bilan birga o'sib, rivojlanib bormoqda. Avvallari dars davomida o'qituvchi faqatgina suhbat metodidan foydalanib mavzuni bolalarga tushuntirib bergan bo'lsa, bugungi kunda turli xil interaktiv, interfaol hamda ko'rgazmali metodlardan foydalanilmoqda. Bu esa dars samaradorligiga sezilarli darajada ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan ta'lim metodlariga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin:





Suhbat metodi – bu boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda keng qo‘llaniladigan va shu bosqich o‘quvchilari tabiatiga mos metos sanaladi. Suhbat metodi o‘qituvchidan mavzuning xususiyatini o‘zida aks ettirgan o‘quv materialini topishni, Grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ajratish, o‘xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan savollar tuzishni, ularni o‘quvchilarga izchil berib borishni talab qiladi[2]. Ushbu metod o‘quvchilarning bilimi va fikrlash faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi usul bo‘lib, savol-javob shaklida olib boriladi. Bu metod dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi, ularda mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida suhbat metodining afzallik hamda kamchiliklari tahlil qilinadi:

SUHBAT metodi tahlili	
Afzalliklari	Kamchiliklari
O‘quvchilarni faollikka undaydi, har bir bola o‘z fikrini aytishga intiladi	Vaqt yetishmasligi kuzatilishi mumkin
Bolalarning fikrlashi va nutqi rivojlanadi,	Passiv o‘quvchilar e‘tibordan chetda qolishi



o'quvchilar savollarga javob berish orqali og'zaki nutqini rivojlantiradi	mumkin, faol o'quvchilar suhbatda ko'proq ishtirok etib, passiv o'quvchilar sust qolishi mumkin
Dars interaktivlikka asoslanadi, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida jonli muloqot bo'ladi	Javob sifati har doim ham o'qituvchi kutganidek yuqori sifatli bo'lmasligi mumkin
O'quvchilarga individual yondashish imkonini beradi, har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlash va unga mos savollar berish mumkin bo'ladi.	Tashkiliy murakkablik kuzatilishi mumkin, ya'ni o'quvchilar savolga teng Javob berishadigan bo'lsa, sinf xonasida noo'rin shovqin paydo bo'lishi mumkin.

Savol-javob metodi - bu o'quvchilarning bilish, tushunish, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'qituvchi tomonidan savollar berish va o'quvchilar tomonidan ularga javoblar topish orqali o'qitish usulidir. Ushbu metod orqali dars davomida quyidagilarni amalga oshirishish mumkin bo'ladi:

- a) yangi bilimlarni o'zlashtirish
- b) avvalgi bilimlarni takrorlash
- c) tushunilganlik darajasini tekshirish
- d) mustahkamlash va umumlashtirish

Savol-javob metodi boshlang'ich sinf darslarida juda zarur, ayniqsa ona tili, o'qish savodxonligi darslarida qo'llansa, o'quvchilarning fikrini erkin ifodalashi, mustaqil mulohaza yuritishi va o'rganilgan bilimni amalda qo'llashi uchun qulay imkoniyat yaratadi.




Analitik-sintetik tovush metodi - bu o‘qish va yozishni o‘rgatish metodlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarga tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘zlar va gaplar ustida ishlash orqali savod o‘rgatishni maqsad qiladi. Bu metod o‘z nomidan ham ko‘rinib turibdi: **analiz (tahlil qilish)** va **sintez (birlashtirish)** asosida ishlaydi. Analitik-sintetik tovush metodi psixolingvistik nuqtai nazaridan: birinchidan savod o‘rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi; ikkinchidan, savod o‘rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulyatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi, uchinchidan, o‘qish birligi sifatida bo‘g‘in olinadi, bo‘g‘in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi[3].

Metodning asosiy mohiyati 2 ta qismni o‘z ichiga qamrab oladi. Bular:

1. Analiz bosqichi (tahlil qilish) tarkibi:
 - a) so‘z tarkibidagi tovushlar ajratib olinadi.
 - b) masalan: "olma" so‘zi aytiladi → o-l-m-a tarzida har bir tovush tahlil qilinadi.
 - c) harflar tovushlar orqali tanishtiriladi.
 - d) o‘quvchi so‘zning qanday tovushlardan iboratligini tushunadi.
2. Sintez bosqichi (Birlashtirish) tarkibi:
 - a) ajratilgan tovushlar orqali so‘zlar qayta birlashtiriladi.
 - b) masalan: $o + l + m + a = olma$.
 - c) o‘quvchilar tovushlarni birlashtirib so‘zlarni o‘qiy boshlaydilar.

Analitik-sintetik tovush metodidan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:



Xulosa qilib shuni aytish joizki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tahlil qilingan suhbat metodi, savol-javob metodi hamda analitik-sintetik tovush metodi o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo'lsa-da, ularni to'g'ri tanlash va dars sharoitiga moslashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ayniqsa, o'qituvchining pedagogik mahorati, metod tanlashdagi yangilikka intilishi, har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olishi darsning sifatli o'tishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, bugungi ta'lim islohotlari doirasida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, ularni innovatsion va interfaol metodlardan samarali foydalanishga yo'naltirish zarur. Zero, zamonaviy metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda mustahkam bilim, faol tafakkur va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/presidential-views-on-schooling>
2. Qosimova K., Matchanov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariyev SH. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Nosir, 2009. 205-b.
3. Asqarova O‘., Xayitboyev M., Nishonov M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2008.
4. Xolmatova, G. (2017). Boshlang‘ich ta’limda ona tili metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Shodmonov, B. (2019). Pedagogik texnologiyalar va interfaol o‘qitish. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
6. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. – T.: 2005. – 5-son.
7. G‘ulomov A. “Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faolligini faollashtirish” T.: 1987.
8. Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.
9. Yunusov Q. Ona tili o‘qitish metodikasi. Ma’ruza matnlari. – Andijon, 2004.